

**JADID ADABIYOTINING MANBAVIY ASOSLARI: SHARQ VA G'ARB  
ADABIY AN'ANALARI KONTEKSTIDA****Oyqiz Rajabova,***O'zbekiston Milliy universiteti magistranti*[oyqizrajabova436@gmail.com](mailto:oyqizrajabova436@gmail.com)

**Annotasiya.** Maqolada jadid adabiyotining shakllanish manbalari, xususan, Sharq mumtoz adabiyoti, islomiy-ma'rifiy meros hamda G'arb va rus adabiyotining ma'rifatparvarlik va realizm an'analari tahlil qilinadi. Tadqiqotda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-tarixiy jarayonlar jadid adabiyotining g'oyaviy va badiiy asoslariga ta'siri bilan o'rganiladi. Shuningdek, maqolada jadid adabiyotida psixologik chuqurlik, milliy uyg'onish g'oyalari, ijtimoiy adolat va ta'lim masalalari qanday ifodalanganligi ko'rsatiladi. Muallif jadid adabiyotini milliy va jahon madaniy jarayonlarining kesishgan nuqtasida shakllangan murakkab adabiy hodisa sifatida baholaydi va uning o'zbek adabiyoti tarixidagi o'rni hamda zamonaviy ilmiy diskursdagi dolzarbligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** jadid adabiyoti, manbaviy asoslar, Sharq adabiy merosi, G'arb adabiy an'analari, islomiy-ma'rifiy meros, psixologik realizm, ijtimoiy-tarixiy kontekst.

**Аннотация:** В статье анализируются источники джадидской литературы, в частности классическая восточная литературная традиция, исламское просветительское наследие, а также западная и русская литературные традиции Просвещения и реализма. В исследовании рассматривается влияние социально-исторических процессов в Туркестане на рубеже XIX–XX веков на идеологические и художественные основы джадидской литературы. Также в статье исследуется, как в джадидской литературе проявляются психологическая глубина, идеи национального возрождения, социальная справедливость и вопросы образования. Автор оценивает джадидскую литературу как сложное литературное явление, сформированное на пересечении национальных и мировых культурных процессов, и подчеркивает её значение в истории узбекской литературы и актуальность в современном научном дискурсе.

**Ключевые слова:** джадидская литература, источниковая база, восточное литературное наследие, западные литературные традиции, исламское просветительское наследие, психологический реализм, социально-исторический контекст.

**Annotation:** The article analyzes the sources of Jadid literature, particularly the classical Eastern literary tradition, Islamic-educational heritage, and the Western and Russian literary traditions of Enlightenment and realism. The study examines how the socio-historical processes in Turkestan at the turn of the 19th–20th centuries influenced the ideological and artistic foundations of Jadid literature. In addition, the article explores how psychological depth, ideas of national revival, social justice, and education are expressed in Jadid literature. The author evaluates Jadid literature as a complex literary phenomenon formed at the intersection of national and global cultural processes and emphasizes its role in the history of Uzbek literature and its relevance in contemporary scholarly discourse.

**Keywords:** Jadid literature, source foundations, Eastern literary heritage, Western literary traditions, Islamic-educational heritage, psychological realism, socio-historical context.

**Kirish.** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan o'zgarishlar milliy tafakkur rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Mazkur davrda vujudga kelgan jadidchilik harakati jamiyatni ma'rifat asosida yangilash, milliy ongini uyg'otish hamda zamonaviy taraqqiyot yo'liga yo'naltirishni maqsad qilgan ijtimoiy-madaniy harakat sifatida tarix sahnasiga chiqdi[5]. Ushbu harakatning badiiy ifodasi sifatida shakllangan jadid adabiyoti o'zbek adabiyoti tarixida muhim bosqichni boshlab berdi[8].

Jadid adabiyoti o'zining g'oyaviy yo'nalishi, ijtimoiy mazmuni va badiiy uslubi bilan an'anaviy adabiy tafakkurdan ma'lum darajada farqlanadi. Shu sababli uning shakllanish omillarini, xususan, manbaviy asoslarini o'rganish ilmiy jihatdan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Jadid adabiyotining manbaviy asoslarini aniqlash ushbu adabiyotning g'oyaviy ildizlari, badiiy xususiyatlari hamda milliy adabiyot taraqqiyotidagi o'rnini chuqurroq anglash imkonini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda jadid adabiyotining manbaviy asoslarini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, tarixiy-adabiy, tahliliy hamda interpretativ metodlar qo'llanildi.

Qiyosiy-tipologik metod orqali jadid adabiyotining Sharq mumtoz adabiyoti, islomiy-ma'rifiy meros hamda G'arb va rus adabiyoti bilan o'xshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Tarixiy-adabiy metod asosida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning jadid adabiyotiga ta'siri o'rganildi.

Shuningdek, tahliliy metod yordamida jadid adiblari ijodidagi badiiy va g'oyaviy xususiyatlar, xususan, milliy uyg'onish, ijtimoiy adolat, ma'rifatparvarlik va psixologik realizm masalalari chuqur tahlil qilindi. Interpretativ yondashuv orqali badiiy matnlarning mazmun-mohiyati ochib berildi va ularning zamonaviy ilmiy diskursdagi o'rni baholandi.

**Tahlillar va natijalar.** Jadid adabiyotining shakllanish jarayonida Sharq mumtoz adabiyoti muhim o'rin tutadi. Mumtoz adabiyot asrlar davomida shakllangan yuksak badiiy tafakkur, estetik qarashlar hamda ma'naviy qadriyatlarning boy manbasi hisoblanadi[8]. Jadid adiblari ana shu merosdan samarali foydalanib, uni yangi tarixiy sharoit talablari asosida qayta talqin etdilar. Bu borada, ayniqsa, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Lutfiy, Boborahim Mashrab, Turdi Farog'iy ijodi muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, adolat, ilm-ma'rifatga intilish va birdamlikka chorlash g'oyalari jadid adabiyotida yangi mazmun bilan davom ettirildi. Jadid adiblari mumtoz adabiyotdagi badiiy an'analarni saqlagan holda, ularni zamonaviy ijtimoiy muammolar bilan uyg'unlashtirishga intildilar.

Xususan, Alisher Navoiyning:

Menga qilsa ming jafo, bir qatla faryod aylamam.

Elga qilsa bir jafo, ming qatla faryod aylaram!

She'riy parchasidagi xalqparvarlik g'oyasi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi qahramonlar Yusufbek hoji, Otabek kabi millatparvar inson obrazlar orqali ochib beriladi. Masalan, Otabekning o'z taqdiri ustidan hukm chiqarmay otasiga bo'ysunishida sharqona tarbiya bo'y ko'rsatgan bo'lsa, xalq boshiga tushgan musibat tufayli o'z padarini tanqid qilishi orqali esa xalq musibatini o'z dardidan ustun ko'rgan xalqparvar shaxs obrazi namoyon bo'ladi. Yusufbek Hojining xalq uchun o'z manfaatlaridan voz kechishi esa chinakam vatanparvarlikning bir ko'rinishidir. Turdi Farog'iyning "Tor ko'ngullik beklar" g'azalidagi birdamlik g'oyasi Abdurauf Fitratning "Hind ixtilochilari", "Chin sevish", "Hind sayyohi bayonoti" kabi asarlarida o'z tasdig'ini

topgan. Zahiriddin Muhammad Boburning “Yaxshilig” g‘azalidagi inson dardi va iztirobi Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romanidagi Zebining mash‘um qismatida bo‘y ko‘rsatdi. Natijada jadid adabiyoti mumtoz va yangi davr adabiyotidagi g‘oya va tushunchalarni qamrab yangicha talqin va qahramonlar hayoti orqali jonli tasvirlabgina qolmay o‘zidan oldingi daholar asar qatiga singdirgan mazmunni o‘z asarlari zamiriga kiritishdi.

Jadid adabiyotining shakllanishida islomiy-ma‘rifiy meros ham muhim manbalardan biri hisoblanadi. Jadid ziyolilari diniy qadriyatlarni jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim ma‘naviy omil sifatida talqin qildilar. Ularning fikricha, haqiqiy din ilm-fan, axloq va ma‘rifat bilan uyg‘unlashgan holda jamiyat rivojiga xizmat qilishi lozim[1]. Bu jihat, xususan, Abdulla Avloniy ijodida yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning asarlarida yosh avlodni ilmi, ma‘naviy barkamol etib tarbiyalash g‘oyasi asosiy o‘rin egallaydi. Shuningdek, jadid adabiyotida diniy-ma‘rifiy qarashlarning zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashuvi kuzatiladi. Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida islomning asl ma‘no va mohiyati oyat va hadislari orqali ochib berildi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasiidagi ziyoli va diniy ulamoning fikrlari esa islomning asl mohiyatini anglatish uchun xizmat qiladi. Jadidlar o‘sha davrdagi mutaassib dindorlardan farqli o‘laroq islomning tub mohiyatini o‘z ijod namunalariga ko‘chirishdi. Xususan, ushbu harakatning sarboni sanalgan Ismoil G‘aspiralining “Dorur-rohat musulmonlari” asarida haqiqiy islom madaniyati targ‘ib qilingan edi. Abdurauf Fitratning “Munozara” va “Hind sayyohi bayonoti” asarlarida ham islom va musulmonlik mohiyati juda aniq tarzda bayon etilgan. “Hind sayyohi bayonoti” asarida o‘sha davr musulmon kishilarining asl qiyofasi, ularning hayot yo‘li achinarli tarzda muhokama ostiga olingan. Qahramonlar suhbatlari va xatti-harakatlari orqali asl islom dindorlari qanaqa bo‘lishi lozim-u, o‘sha davr dindorlari qay ahvoldaligi tanqid ostiga olindi. Bu jihat ayniqsa, Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romanida juda mahorat bilan tasvirlandi. Romandagi soxta dindorlar orqali yozuvchi asr muammosini ochib beradi. Ulardan biri Razzoq so‘fi o‘z johilligi tufayli qizining hayotini ham “piri”ning qaroriga bog‘lab oxir-oqibat uning baxtsizligiga sabab bo‘ladi. Bu holat jadid adabiyotining faqat badiiy emas, balki ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan adabiy yo‘nalish sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan madaniy jarayonlar jadid adabiyotining rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Yangi usul maktablarining tashkil etilishi, matbuotning rivojlanishi hamda tarjima faoliyatining kengayishi natijasida jadid ziyolilari Yevropa va rus madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Bu jarayon jadid adabiyotining g‘oyaviy doirasini kengaytirib, unda jamiyatni isloh qilish, milliy taraqqiyotga erishish va zamonaviy ta‘lim tizimini rivojlantirish kabi g‘oyalarning shakllanishiga olib keldi. Ularning asarlarida ijtimoiy muammolar, millat taqdiri va zamonaviy tafakkur masalalari keng yoritilgan bo‘lib, bu jadid adabiyotining ijtimoiy yo‘nalishini yanada kuchaytirgan. Jadid adabiyoti va Yevropa adabiyoti

o'rtasidagi bog'liqlik, avvalo, ma'rifatparvarlik g'oyalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Yevropa ma'rifatparvarlik adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lgan Volter o'z asarlarida jamiyatni aql va ilm asosida isloh qilish g'oyasini ilgari surgan. Xuddi shunday g'oyalar Abdurauf Fitrat ijodida ham uchraydi[3]. Fitrat jamiyatni jaholatdan qutqarish, ilm-ma'rifat orqali millatni taraqqiy ettirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu o'xshashlik jadid adabiyotining Yevropa ma'rifatparvarlik an'analari bilan tipologik uyg'unligini ko'rsatadi.

Shuningdek, rus adabiyotidagi ijtimoiy tanqid va realizm an'analari jadid adabiyotida ham o'z aksini topgan. Masalan, Dostoyevskiy, Chexov va Tolstoy o'z asarlarida jamiyatdagi illatlarni tanqidiy ruhda tasvirlaydi. Xuddi shunday ruh Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asarida ham kuzatiladi. Ushbu asarda jamiyatdagi jaholat, eskilik va tarbiyasizlik muammolari keskin tanqid qilinadi. Bu esa jadid dramaturgiyasining rus realizmi bilan yaqinligini ko'rsatadi.

Jadid adabiyotining Yevropa va rus adabiyoti bilan bog'liqligi uning janr tizimidagi yangilanishlarda ham namoyon bo'ladi. Yevropa adabiyotida keng rivojlangan drama janri jadid adabiyotida ham muhim o'rin egallay boshlaydi. Bu jarayonni Uilyem Shekspir dramaturgiyasi bilan qiyoslash mumkin. Albatta, bevosita ta'sir emas, balki sahna san'ati va dramatik tafakkurning umumiy rivoji nuqtayi nazaridan o'xshashlik kuzatiladi. Behbudiyning dramalarida konflikt, dialog va sahnaviylik muhim o'rin egallashi Yevropa dramaturgiyasi bilan umumiylikni ko'rsatadi. Shuningdek, Abdurauf Fitratning "Abulfayzxon" tragediyasi Shespirning "Hamlet" asaridan ruhlangan holda yozilgan.

Rus adabiyotining psixologik realizm an'analari esa jadid adabiyotida, ayniqsa Cho'lpon ijodida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu jihatni Fyodor Dostoevsky ijodi bilan qiyoslash mumkin. Dostoevskiy asarlarida inson ruhiyati, ichki iztiroblari va erkinlik muammosi markaziy o'rin tutadi. Xuddi shunday, Cho'lpon ijodida ham inson qalbining murakkab kechinmalari, erkinlikka intilish va ruhiy izlanish chuqur badiiy ifodalanadi. Bu esa jadid adabiyotining psixologik chuqurlik jihatidan rus realizmi bilan uyg'unlashganini ko'rsatadi. Xususan, Cho'lponning "Binafsha", "Buzilgan o'lkaga", "Xalq", "Kishan", "Vijdon erki" kabi she'rlarida ushbu jihat yaqqol ko'rinadi[9].

Jadid adabiyotining Yevropa va rus adabiyoti bilan aloqadorligini izohlashda tarjima va madaniy almashinuv jarayonlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida rus tili orqali Yevropa adabiyoti namunalarining Turkistonga kirib kelishi jadid ziyolilarining dunyoqarashini sezilarli darajada kengaytirdi[5]. Bu jarayon adabiyotshunoslikda "madaniy transfer" tushunchasi bilan izohlanadi. Xususan, Abdurauf Fitratning chet elda tahsil olishi va Yevropa madaniy muhitida bo'lishi uning ijodida zamonaviy g'oyalarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Behbudiyning Orenburgga qilgan safari ham xuddi shunday ijodiga ta'sir o'tkazdi. Jadid adiblarning boshqa o'lkalarga qilgan safarlari yangicha g'oya va maqsadlar tug'ilishiga zamin yaratdi. Ushbu g'oyalar natijasida yaratilgan adabiy asarlarda yangicha fikr va g'oyalar aks etdi. Bundan tashqari, jadid adabiyotida Yevropa modernizmi unsurlari ham seziladi.

Individualizm, shaxs erkinligi va ichki ruhiy izlanish kabi jihatlar Cho'lp on ijodida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar Yevropa modernistik adabiyotiga xos bo'lib, jadid adabiyotining global adabiy jarayonlar bilan bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shunday qilib, jadid adabiyotining Yevropa va rus adabiyoti bilan bog'liqligi ko'p qirrali ilmiy dalillar asosida isbotlanadi. Bu bog'liqlik g'oyaviy-mazmuniy, janriy, badiiy va tarixiy-madaniy darajalarda namoyon bo'ladi. Jadid adabiyoti milliy va jahon adabiy jarayonlari kesishgan nuqtada shakllangan murakkab va sintez hodisa sifatida baholanishi mumkin. Shu bois uni o'rganishda qiyosiy adabiyotshunoslik yondashuvi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Jadid adabiyotining shakllanish jarayonini ilmiy jihatdan o'rganishda ijtimoiy-tarixiy muhitning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar mazkur adabiy yo'nalishning paydo bo'lishi va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Xususan, Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi natijasida mintaqa mustamlaka hududiga aylanishi mahalliy jamiyat hayotida chuqur inqirozli holatni yuzaga keltirdi[5].

Mustamlakachilik siyosati oqibatida milliy iqtisodiyot zaiflashdi, ijtimoiy tuzum izdan chiqdi, madaniy hayotda qoloqlik kuchaydi. Ta'lim tizimi esa eskirgan usullar asosida faoliyat yuritib, zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan chetda qoldi. Natijada jamiyatda yangilanishga bo'lgan ehtiyoj tobora kuchayib bordi. Naim Karimov ta'kidlaganidek, jadidchilik harakati aynan shu ijtimoiy ehtiyoj asosida vujudga kelgan bo'lib, millatni tanazzuldan olib chiqishga qaratilgan ma'rifiy harakat sifatida shakllandi.

Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda jadid ziyolilari jamiyatni isloh qilish zarurligini chuqur anglab yetdilar. Ular milliy taraqqiyotning asosiy sharti sifatida ilm-fan va ma'rifatni ilgari surdilar. Shu bois jadid adabiyoti faqat badiiy-estetik vazifani bajaruvchi hodisa bo'lib qolmay, balki jamiyatni uyg'otuvchi, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi va ma'rifiy g'oyalarni targ'ib qiluvchi kuchga aylandi. Bu jihat Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va Abdulla Avloniy ijodida yaqqol namoyon bo'ladi.

Jadid adabiyotining shakllanishida ta'lim tizimidagi islohotlar muhim o'rin tutadi. An'anaviy maktab va madrasalardagi o'qitish usullari zamon talablariga javob bermay qolganligi sababli yangi usul maktablari tashkil etildi. Ushbu maktablarda dunyoviy fanlar o'qitila boshladi, bu esa yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirdi. Natijada jamiyatda yangicha tafakkur shakllandi va bu jarayon adabiyotda ham o'z aksini topdi. Ilm-ma'rifat, tarbiya, milliy uyg'onish va ijtimoiy faollik jadid adabiyotining asosiy mavzulariga aylandi. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari bu jarayonning nazariy asosini tashkil etadi.

Bundan tashqari, matbuotning rivojlanishi jadid adabiyotining shakllanishida muhim kommunikativ vosita sifatida xizmat qildi. Gazeta va jurnallar orqali yangi g'oyalar keng ommaga yetkazildi, ijtimoiy muammolar ochiq muhokama qilindi. Bu esa adabiyotning

ijtimoiy funksiyasini kengaytirib, uni jamiyatni o'zgartirishga xizmat qiluvchi kuchga aylantirdi. Ozod Sharafiddinov qayd etganidek, jadid adabiyoti o'z davrining ijtimoiy ehtiyojlariga faol javob bergan adabiyotdir.

Ijtimoiy-tarixiy muhit jadid adabiyotining mavzu va mazmuniga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Asarlarda jaholatga qarshi kurash, milliy o'zlikni anglash, ayollar erkinligi, ta'lim muammolari va ijtimoiy adolat masalalari yetakchi o'ringa chiqdi. Bu jihat ayniqsa Cho'lpon ijodida chuqur ifodalangan bo'lib, unda inson erkinligi va ruhiy ozodlik g'oyalari markaziy o'rin egallaydi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, jadid adabiyotining shakllanishi ijtimoiy-tarixiy muhit bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u mazkur muhitning bevosita mahsuli sifatida yuzaga kelgan. Mustamlakachilik sharoiti, madaniy qoloqlik, ta'lim tizimidagi muammolar va jamiyatni yangilash ehtiyoji jadid adabiyotining vujudga kelishida asosiy omillar bo'lib xizmat qilgan. Shu bois jadid adabiyotini faqat badiiy hodisa sifatida emas, balki o'z davrining ijtimoiy-ma'rifiy ehtiyojlariga javob bergan tarixiy-madaniy hodisa sifatida baholash ilmiy jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, jadid adabiyoti ko'p manbali adabiy hodisa bo'lib, uning shakllanishida turli madaniy va g'oyaviy omillar muhim rol o'ynagan. Jumladan, Sharq mumtoz adabiyoti, islomiy-ma'rifiy meros, G'arb va rus ma'rifatparvarlik g'oyalari hamda ijtimoiy-tarixiy muhit jadid adabiyotining g'oyaviy va badiiy asoslarini belgilab berdi[5]. Mazkur omillar jadid adabiyotining mazmunini boyitib, uni milliy uyg'onish davrining muhim adabiy hodisasiga aylantirdi. Jadid adabiyoti esa o'z navbatida o'zbek milliy adabiyotining keyingi taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: "O'qituvchi", 1992. – B. 160.
2. Behbudiy, M. Tanlangan asarlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1999. – B. 304.
3. Fitrat, A. Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent: "Fan", 2000. – B. 336.
4. Hamza, H. N. Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – B. 128.
5. Karimov, N. Jadidchilik harakati tarixi. Toshkent: "Sharq", 2005. – B. 384.
6. Qodiriy, A. Mehrobdan chayon. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. – B. 304.
7. Qodiriy, A. O'tkan kunlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. – B. 352.
8. Sharafiddinov, O. Jadid adabiyoti. Toshkent: "Ma'naviyat", 1999. – B. 320.
9. Cho'lpon. Asarlar. 1-jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – B. 384.